

JINSSIZ KO'PAYISHNING NORASMIY TIPLARI

Ahmadjonova M.

Andijon Davlat pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya yo'nalishi 302-guruh talabasi

Yo'ldashev Abduvali

O'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17748910>

Annotatsiya: Jinsiy ko'payishning norasmiy tiplari — bu partenogenez, ginogenez, androgenez va ximerizm kabi normal jinsiy ko'payishdan farq qiluvchi hujayra yoki genetik material almashinuvining o'ziga xos shakllaridir. Ular genetik xilma-xillikni oshiradi va organizmlarning moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: jinsiy ko'payish, norasmiy tiplar, partenogenez, genogenez, androgenez, ximerizm

ANNOTATION: Asexual reproduction is a special form of cell or genetic material exchange that differs from normal sexual reproduction, such as parthenogenesis, gynogenesis, androgenesis, and chimerism. They increase genetic diversity and provide adaptation to organisms.

Keywords: sexual reproduction, informal types, parthenogenesis, genogenesis, androgenesis, chimerism

АННОТАЦИЯ: Бесполое размножение — это особая форма обмена клетками или генетическим материалом, отличающаяся от обычного полового размножения, такого как партеногенез, гиногенез, андрогенез и химеризм. Они увеличивают генетическое разнообразие и обеспечивают адаптацию организмов.

Ключевые слова: половое размножение, неформальные типы, партеногенез, геногенез, андрогенез, химеризм

Jinsiy ko'payish — bu organizmlarning yangi avlod hosil qilish jarayoni bo'lib, ota-ona organizmlarning genetik materiallari birlashishi orqali amalga oshadi. Bu jarayon tabiatda hayvonlar, o'simliklar va insonlarda keng tarqalgan. Jinsiy ko'payishda ikki turdagi hujayralar — spermatozoid va tuxum hujayra — birlashadi va urug'lanish sodir bo'ladi. Natijada yangi genetik kombinatsiyaga ega avlod paydo bo'ladi, bu esa turlar xilma-xilligini ta'minlaydi. Jinsiy ko'payish organizmning reproduktiv sog'lig'i va evolyutsiyaviy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Insonlarda bu jarayon jinsiy faoliyat orqali amalga oshadi va reproduktiv tizim organlari ishtirok etadi. Jinsiy ko'payish orqali genetik xususiyatlar avloddan-avlodga o'tadi hamda yangi uyushmalar yuzaga keladi.

Jinsiy ko'payishning norasmi tiplariga partenogenez, ginogenez va androgenez kiradi. Jinsiy ko'payishning qayd etilgan tiplari mevoz bo'linish to'liq va qisman yo qolishi va uning o'rniga jinsiy sikl mitoz bilan almashishi oqibatida paydo bo'lgan.

Murtakni otalanmagan tuxum hujayradan rivojlanishi-partenogenez Partenogenez 2 xil ya'ni tabiiy va sun'iy bo'ladi. Tabiiy partenogenezda voyaga yetgan tuxum hujayra tashgi va ichki omillar tasiri bilan spermatozoid bilan qo'shilmasa ham rivojlanib normal organizmni hosil bo'ladi. Tabiiy partenogenez kolovratkalar, tuban qisqichbaqasimonlar, pardaqaotlilar, deyarli qushlarda ham kuzatiladi. Partenogenez doimiy va qisman bolishi mumkin. Bazi hayvonlarda urug'lanmagan tuxum hujayradan faqat urg'ochi, urug'langan tuxum hujayradan ham urg'ochi ham erkak jinsli organizmlar rivojlanadi. Ikkinchi holatda esa urug' lanmagan

tuxum hujayradan faqat erkak urug'langanidan esa urg'ochi organizm paydo bo'ladi. Tuban qisqichbaqasimonlardan dafniyalarda urg'ochi organizmida diploid, erkaklarida esa gaploid xromosomalar to'plamiga ega boladi. Qulay sharoitda dafniya partenogenetik yo'li bilan ham kopayadi. Natijada faqat urg'ochi organizmlar voyaga yetadi. Noqulay sharoitda ozuqa yetishmaganda erkak dafniyalar rivojlanadi. Suniy partenogenez tajribada tuxum hujayrani har xil omillar ta'siri bilan faollashtirish natijasida hosil qilinadi. Bunday omillarga yuqori harorat, har xil kislotalar, yorug'lik bilan tuxum hujayraga ta'sir etib uni faollashtiradi. Sun'iy partenogenez tut ipakqurtida, baqalarda, quyonlarda, suv o'tlarida, zamburug'larda, yuksak osimliklar (g'alladoshlar, dukkakli o'simliklar)da amalga oshirilgan.

Ginogenez - partenogenezning alohida xili sanaladi. Ginogenez yumaloq chuvalchanglarda, baliqlardan kumushsimon karas balig'ida kuzatilgan. Partenogenezdan farqli ravishda ginogenezda spermatozoid tuxum hujayrani faollashtirishda ishtirok etadi, lekin u bilan qo'shilmaydi..

Androgenez ginogenezning teskari ko'rinishi hisoblanadi. Agar tuxum hujayrada yadro qanday sababga ko'ra nobud bo'lsa, tuxum hujayraga kirgan spermatozoidning ikkitasi bir-biri bilan qo'shib xromosomaning diploid to'plamini hosil qilishi mumkin. Bunday xromosoma to'plamiga ega zigotalardan rivojlangan organizmda faqat ota organizm belgilari namoyon boladi. Partenogenez, ginogenezdan rivojlangan organizmdan odatda urg'ochi, androgenezdan esa erkak jinsga mansub organizmlar yetishadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Genetika va seleksiya asoslari" 2012-yil. 2.
2. A.Gofurov, S.Fayzullayev
3. J.Saidov „Genetika“
4. Taibova, D. D. Umumiy biologiya
5. Abdullayev, B. – O'simliklarning reproduktiv biologiyasi Sobirov, E. – Genetika asoslari
6. G'ofurov, A. – Umumiy biotexnologiya va genetik (Norasmiy ko'payish turlari bo'limi).